



FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH
VA BARTARAF ETISH SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**FAVQULODDA VAZIYATLAR
DAVLAT NAZORAT INSPEKTORI**



“Favqulodda vaziyatlar davlat nazorat inspektori” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Favqulodda vaziyatlar davlat nazorat inspektori

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0001



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart Favqulodda vaziyatlar davlat nazorati inspektor kasbi bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish – favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'ligini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo'l qo'ymaslikka hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar majmui;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar majmui, vositalar hamda usullar tizimi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolishga va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui;

FVDTning funksional quyi tizimi – aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlarni o'z ichiga olgan quyi tizim;

FVDTning hududiy quyi tizimi – tegishli hududda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini o‘z ichiga olgan quyi tizim;

fuqaro muhofazasi – harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O‘zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlar davlat tizimi;

informal ta‘lim – aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta‘limdan ko‘ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatini o‘z ichiga olgan ta‘lim shakli;

kasb – ko‘nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo‘yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o‘z ichiga olgan muayyan kasb to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o‘z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro‘yxat;

ko‘nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

obyekt – yuridik yoki jismoniy shaxsning mulkiy kompleksi (yoki uning bir qismi), shu jumladan ular uchun yong‘in xavfsizligi talablari belgilangan binolar, inshootlar, transport vositalari, texnologik qurilmalar, asbob-uskuna, agregatlar, buyumlar va boshqa mol-mulk;

tadbirkorlik subyektiga tegishli bo‘lgan obyektning yong‘in – profilaktik ko‘rigi – keyinchalik tadbirkorlik subyektiga yong‘in kelib chiqishi kuchayishining (tarqalishining) oldini olishga qaratilgan yozma tavsiyalar berish uchun obyektning

yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tadbir;

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar (keyingi o'rinlarda – favqulodda vaziyatlar) – muayyan hududda odamlar qurbon bo'lishiga, odamlarning sog'lig'iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar;

yong'in nazorati bo'yicha davlat inspektori – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining davlat yong'in nazoratini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxsi;

yong'inlar profilaktikasi – yong'inlar kelib chiqish ehtimolini istisno etishga va ularning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan ogohlantirish chora-tadbirlari majmui;

yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini tekshirish – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolarning yong'in xavfsizligi talablarini bajarishlari yuzasidan davlat yong'in nazorati organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladigan nazorat shakli va aniqlangan qoida buzishlarni bartaraf etish va (yoki) ularning oldini olish choralarini ko'rish;

yozma ko'rsatma – yong'in nazorati bo'yicha davlat inspektorining yong'in xavfsizligi talablari buzilishini bartaraf etish, shu jumladan qurilayotgan korxonalar va obyektlarning, shuningdek tovarlarni ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish)da yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarning belgilangan muddatlarda tegishli mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan yozma farmoyishi.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgust "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi 790-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori (IFUT-2);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabr "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2020-yil 20-oktabr
"Yong'in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 649-son qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

FV – favqulodda vaziyat;

FVV – favqulodda vaziyatlar vazirligi;

FVDT – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat
qilish davlat tizimi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat
tasniflagichi;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Favqulodda vaziyatlar davlat nazorati inspektori	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasida aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ularning yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali davlat nazoratini amalga oshirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	<p>P seksiyasi Davlat boshqaruvi va mudofaa; Majburiy ijtimoiy ta'minot</p> <p>84 Davlat boshqaruvi va mudofaa; Majburiy ijtimoiy ta'minot</p> <p>84.2 Davlat tomonidan umuman jamiyatga xizmatlar ko'rsatish</p> <p>84.25 Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat</p> <p>84.25.0 Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat</p>	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Favqulodda vaziyatlar davlat nazorati inspektori aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yong'in va texnogen xavflarning oldini olish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		21493003-Favqulodda vaziyatlar davlat nazorat inspektori	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	21493003 Favqulodda vaziyatlar davlat nazorat inspektori	A1.6	Korxonalar, tashkilotlar va boshqa obyektlarda xavfsizlik choralari, yong'in xavfsizligi, evakuatsiya yo'llari va boshqa tegishli talablar bajarilishini nazorat qilish	A1.01.6	Korxonalar, tashkilotlar va boshqa obyektlarda yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni oldini olishga oid me'yoriy hujjatlar talablari bajarilishini tekshirish
				A1.02.6	Yong'in signalizatsiya tizimlari, yong'in o'chirish vositalari, evakuatsiya qurilmalari va boshqa texnik vositalarning ishlash holatini nazorat qilish
				A1.03.6	Obyektda yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha me'yorlarga rioya etilishini aniqlash
				A1.04.6	Xavfli holatlarni va qonun buzilishlarini aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish
		A2.6	Favqulodda vaziyatlarni oldini olish, tayyorgarlik ko'rish va bartaraf etish bo'yicha qoidalarga rioya etilishini tekshirish	A2.01.6	FVni oldini olish, tayyorgarlik ko'rish va bartaraf etish bo'yicha amaldagi qonunlar, qoidalar va standartlarga muvofiqlikni tekshirish
				A2.02.6	Korxonalar va tashkilotlarda xavflarni aniqlash va ularni kamaytirish choralari qanday joriy etilganligini tekshirish
				A2.03.6	FVga tayyorgarlik va oldini olish ishlarida mas'ullarning vazifalari belgilab berilganligi hamda ularning bajarilishini tekshirish
		A3.6	Favqulodda vaziyatlar yuz berganida nazorat va bartaraf etish ishlarini muvofiqlashtirish	A3.01.6	Favqulodda vaziyat yuz bergan vaqtda vaziyatning tarqalish xavfi va ehtimoliy oqibatlarini tezda aniqlash
				A3.02.6	Aholiga favqulodda vaziyatda qanday harakat qilish lozimligi bo'yicha ko'rsatmalar berish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Favqulodda vaziyatlar davlat nazorat inspektori
Mashg'ulot nomining kodi:	21493
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Inspektor lavozimiga nomzodning ish tajribasi tegishli (favqulodda vaziyatlar, yong'in xavfsizligi, muhofaza, sanitariya yoki texnik xavfsizlik) sohada kamida 1-3 yillik amaliy tajribasi bo'lishi talab etiladi. Favqulodda vaziyatlar sohasidagi texnik vositalar, xavfsizlik tizimlari va qoidalar bilan ishlash bo'yicha tajriba e'tiborga olinadi, bu juda muhim ustunlik sifatida baholanadi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan bo'lishi, erkak, yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik va chidamli, jismonan sog'lom va harbiy xizmatni o'tagan bo'lishi, Qutqaruvchi bo'lish uchun ishga qabul qilishdan oldin va mehnat faoliyati davomida tibbiy ko'riklardan o'tish talab qilinadi Belgilangan qoidalarga rioya qilish. Mehnat intizomi va xizmatga sadoqat. O'z-o'zini baholash va tanqidiy fikrlash. Kamchiliklarni anglash va ularni bartaraf etish ustida ishlash. Tez o'zgaruvchan muhitda ishlashga tayyorlik. Yangi shart-sharoitlarga oson ko'nikish. Qiyin, xavfli va uzoq muddatli qutqaruv operatsiyalarida faol ishtirok. O'zaro ishonch va hamjihatlikni ta'minlash. Qutqaruv texnikasi va vositalari bo'yicha bilimga ega bo'lish. Favqulodda vaziyatlarning turlari va ularni bartaraf etish taktikalarini bilish. Jismoniy tayyorgarlik va chidamlilik (yugurish, shturm, yuk ko'tarish, suvda ishlash va boshqalar) ko'nikmalariga ega bo'lish. Qutqaruv ishlarini amalga oshirishda yuqori samaradorlik. Notinch va xavfli sharoitlarda ham to'g'ri fikr yuritib, muammoni hal qilish
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	O'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
<p>A1.6- Korxonalar, tashkilotlar va boshqa obyektlarda xavfsizlik choralari, yong'in xavfsizligi, evakuatsiya yo'llari va boshqa tegishli talablar bajarilishini nazorat qilish</p>	O'qitish natijalari		
	Mehnat harakatlari:		
	1. Korxonalar, tashkilotlar va boshqa obyektlarda yong'in xavfsizligi, xavfsizlik choralari, evakuatsiya yo'llari va boshqa tegishli talablar bajarilishini rejali va favqulodda tekshiruvlar o'tkazish		
	2. Obyektning yong'in xavfsizligiga oid sertifikatlar, ruxsatnomalar, evakuatsiya rejalarini, tekshirish jurnallari va boshqa tegishli hujjatlarining mavjudligi va to'g'ri yuritilishini tekshirish		
	3. Yong'in signalizatsiyasi, yong'in o'chirish qurilmalari, evakuatsiya chiqishlari va boshqa xavfsizlik vositalari holatini tekshirish		
	4. Xodimlarning yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari, evakuatsiya bo'yicha tayyorgarlik darajasini baholash		
	5. Tekshiruv natijalarini tahlil qilish va kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish		
	6. O'zbekiston Respublikasi va tegishli vazirliklar tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar talablarini bajarishni ta'minlash uchun ko'rsatmalar berish va ularni bajarilishini nazorat qilish		
	7. Yong'in yoki boshqa favqulodda vaziyat yuz bersa, sabablarini o'rganish, tahlil qilish va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish uchun chora-tadbirlarni taklif etish		
	Ko'nikmalar:		
	Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni oldini olish sohasidagi asosiy qonunlar, qarorlar, standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tekshiruvlar o'tkazish va nazorat qilish		
Korxonalar va tashkilotlarda yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha talablarni tekshirish			
Nazorat qilish jarayonida xavf-xatarlar va kamchiliklarni aniqlash, ularni hujjatlash va bartaraf etish uchun choralar belgilash			

		Tekshiruvlarni rejalashtirish va o'z vaqtida amalga oshirish
		Nazorat jarayonida aniqlangan muammolarni tez va samarali hal etish
		Kasbiy bilim va tajriba asosida oqilona va qat'iy qarorlar qabul qilish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori
		O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni
		Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmonlari, vazirlik buyruqlari va boshqa me'yoriy hujjatlar
		Korxonalar, tashkilotlar va boshqa obyektlarda yong'in xavfsizligi tizimlari, yong'in signalizatsiyasi, yong'in o'chirish vositalari va ularni ekspluatatsiya qilish qoidalari
		Korxonalarda evakuatsiya yo'llari, evakuatsiya rejalari va ularning xavfsizligini ta'minlash usullari
		Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishning tashkiliy va texnik jihatlari
		Tekshiruvlarni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish metodologiyalari
		Kamchiliklar va xavf-xatarlarni aniqlash usullari, ularni hujjatlash va hisobot berish metodikalari
		Nazorat jarayonida qonuniy va samarali yo'llar bilan muammolarni hal qilish usullari
		Xavfsizlik xizmati, xodimlarning yong'in xavfsizligi bo'yicha tayyorgarligi va malakasini oshirish yo'llari
		Maxsus texnik vositalar, ularning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlash asoslari
		Obyektlarda xavfsizlik madaniyati va xodimlarning xavfsizlik qoidalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Obyektda o'rnatilgan yong'in signalizatsiya tizimlarining faoliyati va ularning ishlash qobiliyatini nazorat qilish
		2. Yong'in o'chirish vositalarining mavjudligi, sifatli holati va texnik xizmat ko'rsatilishini tekshirish
		3. Evakuatsiya yo'llari, belgilar va evakuatsiya qurilmalarining ishlash holatini tekshirish

	<p style="text-align: center;">A1.02.6 Yongin signalizatsiya tizimlari, yong'in o'chirish vositalari, evakuatsiya qurilmalari va boshqa texnik vositalarning ishlash holatini nazorat qilish</p>	4. Texnik vositalarga muntazam texnik xizmat ko'rsatilishi, ta'mirlanishi va ularning ishlab turgan holati haqida hisobotlarni olish va tekshirish
		5. Mavjud nosozliklar va kamchiliklarni aniqlab, ularning vaqtida bartaraf etilishini ta'minlash
		6. Texnik vositalardan to'g'ri va samarali foydalanish uchun xodimlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishni ta'minlash
		7. Texnik vositalarning holati bo'yicha rejali va favqulodda tekshiruvlar o'tkazish
		8. Tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish, xulosa va takliflarni shakllantirish
		9. Texnik vositalarning ishlash holati me'yoriy talablarga muvofiqligini ta'minlash va ularni standartlar bo'yicha tekshirish
		10. Qonunchilikda belgilangan talab va me'yorlarga rioya qilishini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Yong'in o'chirish vositalarini to'g'ri ishlashini baholash va nosozliklarni aniqlash
		Evakuatsiya qurilmalari va belgilarining to'g'ri joylashtirilishi va ishlash holatini nazorat qilish
		Nazorat natijalarini aniq va to'liq hujjatlash
		Texnik holat to'g'risida hisobotlar, xulosalar tayyorlash
		Kamchiliklarni bartaraf etish uchun tavsiyalar berish va monitoring olib borish
		Texnik vositalarda muammolarni tezda aniqlash va ularni bartaraf etish
		Mehnat faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunlari, standartlari va me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshirish
		Bilimlar:
		Yong'in signalizatsiya tizimlarining turlari va ularning ishlash prinsiplari
		Yong'in signalizatsiya tizimlarini o'rnatish, ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatish qoidalari
		Tizimning signal berish tartibi, signallarni qabul qilish va favqulodda holatlarda ishlash xususiyatlari
		Yong'in o'chirish vositalari turlari va ularning ishlash prinsiplari
Yong'in o'chirish vositalarini saqlash, texnik xizmat ko'rsatish, ularning ishlash qobiliyatini tekshirish tartibi		

		Evakuatsiya yo'llari va chiqishlarining majmuasi, ularning belgilangan talablari
		Evakuatsiya yo'llarini belgilash va yoritish, evakuatsiya qurilmalari haqidagi talablari
		Evakuatsiya jarayonida xavfsizlikni ta'minlashga oid texnika va choralari
		Xavfsizlik bo'yicha normativ hujjatlar, qonunchilik asoslari
		Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha qoidalar va tavsiyalar
	A1.03.6- Obyektda yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha me'yorga rioya etilishini aniqlash	Mehnat harakatlari:
		1. Obyektning texnik va tashkiliy xususiyatlarini, yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha qoidalarini o'rganish
		2. Mavjud me'yoriy hujjatlar va standartlarni aniqlash, ularning amal qilish tartibi va majburiyatlarini belgilash
		3. Obyektda yong'in xavfsizligi talablari, yong'in signalizatsiyasi, o'chirish vositalari, evakuatsiya yo'llari va boshqa xavfsizlik vositalarining mavjudligi va holatini vizual va texnik tekshiruvlar bilan aniqlash
		4. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha tashkil etilgan chora-tadbirlarning baholash
		5. Mehnat xavfsizligi, sanitariya-gigiyena va boshqa tegishli talablarga rioya etilishini tekshirish
		6. Xodimlarni yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bo'yicha o'qitishlar o'tkazilishini va ularning malakasini baholash
		7. Evakuatsiya va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha mashqlarni nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Obyektlarda yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni oldini olishga oid me'yoriy hujjatlar talablari bo'yicha tekshiruvlarni samarali o'tkazish
		Obyektdagi xavfli holatlarni tezda aniqlash va ularning xavf darajasini baholash, nazorat natijalarini tahlil qilish va kamchiliklarni aniqlash
		Nazorat jarayonida yuzaga kelgan muammolarni tez va samarali hal etish
Bilimlar:		
O'zbekiston Respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar		

		Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etishga oid Vazirlar Mahkamasi qarorlari, FVV buyruq va qoidalari
		Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va sanitariya qonunlari
		Tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar turlari va ularning asosiy belgilar
		Favqulodda vaziyatlarni oldini olish, tayyorgarlik ko'rish va bartaraf etish bo'yicha tadbirlar.
		Obyektlarda xavf tahlili va xavf darajasiga qarab chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish usullari
		Yong'in xavfini aniqlash va baholash usullari
		Avtomatik yong'in signalizatsiya va yong'in o'chirish tizimlari tuzilishi va ishlash prinsiplari
		Evakuatsiya yo'llari va qurilmalariga qo'yiladigan me'yoriy talablar
		Obyektdagi yong'in va favqulodda holatlar bo'yicha tekshiruv rejalarini tuzish va amalga oshirish usullari
		Hujjatlarni tahlil qilish, obyektning vizual ko'zdan kechirish va texnik holatini baholash usullari
		Nazorat natijalari bo'yicha hisobot, dalolatnoma, akt va xulosalarni rasmiylashtirish qoidalari
		Me'yorlarga rioya etilmagan holatlarda huquqiy baho berish va chora ko'rish asoslari
	A1.04.6- Xavfli vaziyatlarni va qonun buzilishlarini aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish	Mehnat harakatlari:
		1. Obyektdagi yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq holatni kompleks tahlil qilish
		2. Hujjatlar, texnik vositalar va evakuatsiya yo'llarini tekshirish orqali mavjud xavfli omillarni aniqlash
		3. Qonun buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tashkilotchilik, tashkiliy yoki texnik kamchiliklarni aniqlash
		4. Me'yoriy talablarga zid holatlarni qayd etish
		5. Xavf darajasini baholash-favqulodda vaziyat yuzaga keltirish ehtimoli va oqibatlarini tahlil qilish
		6. Huquqbuzarlik va xavfli holatlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni rasmiylashtirish (bayonnoma, dalolatnoma va boshqalar)
		7. Tekshiruv natijalari asosida hujjat tayyorlash va kamchiliklarni yozma ravishda qayd etish
		8. Huquqbuzarlik va xavfli holatlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni rasmiylashtirish
		9. Tekshiruv natijalari asosida hujjat tayyorlash va kamchiliklarni yozma ravishda qayd etish

		10. Kamchiliklarni obyekt rahbariyatiga yozma va og'zaki shaklda tushuntirish
		11. Qayta tekshiruv o'tkazib, bajarilgan ishlar samaradorligini baholash
		Ko'nikmalar:
		Obyektlarda xavfli holatlarni, yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarga oid qonun talablarining buzilishlarini tizimli va aniq aniqlash
		Mavjud kamchiliklar va xavflarni tezda baholash
		Nazorat tekshiruvlari natijalarini rasmiylashtirish, dalolatnoma va bayonnoma tuzish
		Tezkor va samarali qarorlar qabul qilish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etishga oid qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlari
		Yong'in xavfsizligi, mehnat muhofazasi, sanitariya va sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunlar va standartlar
		Qonun buzilishlari va ma'muriy javobgarlikka oid qoidalar
		Xavfli holatlarni aniqlash usullari, xavf tahlilini o'tkazish va xavf darajasini baholash metodologiyasi
		Tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar turlari, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlari
	Obyektlarda yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha texnik vositalar va tizimlari	
	Texnik qurilmalarning ishlash prinsiplari va ularning profilaktikasi	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Nazorat jarayonida aniqlangan qonun buzilishlari, xavfli vaziyatlar va kamchiliklar bo'yicha to'g'ri va haqiqiy ma'lumotlar berish
		2. Nazorat tekshiruvlari natijalari asosida hujjatlar tuzish, ularni o'z vaqtida va to'liq shaklda tayyorlash
		3. Kamchiliklarni bartaraf etish va xavfsizlik darajasini oshirish uchun tegishli takliflar kiritish va ularning ijrosini kuzatib borish
		4. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasidagi qonunchilikka va ichki me'yorlarga rioya etilishini ta'minlashda mas'uliyat
		5. Nazorat jarayonida obyektivlik va adolatni saqlab, har qanday bosim yoki ta'sirlardan mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish

		<p>6. Har qanday manfaatlar to'qnashuvidan xoli bo'lib, o'z faoliyatini qonuniy va ochiq tarzda amalga oshirish</p> <p>7. Tekshiruv va baholashni o'z mustaqil bilimi va tajribasi asosida olib borish, zarur bo'lganda tegishli ekspertlar bilan maslahatlashish</p> <p>8. Nazorat qilish jarayonida o'z faoliyatini mustaqil tashkil etish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni mustaqil ravishda kiritish</p>
<p>A2.6- Favqulodda vaziyatlarni oldini olish, tayyorgarlik ko'rish va bartaraf etish bo'yicha qoidalarga rioya etilishini tekshirish</p>	<p>A2.01.6- Favqulodda vaziyatlarni oldini olish, tayyorgarlik ko'rish va bartaraf etish bo'yicha amaldagi qonunlar, qoidalar va standartlarga muvofiqlikni tekshirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasidagi qonunlar, qoidalar, standartlar va ichki tartiblarni o'rganish</p> <p>2. Obyektning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini baholash uchun tegishli hujjatlarni to'plash va tahlil qilish</p> <p>3. Korxonalar, tashkilotlar va boshqa obyektlarda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish chorolari qanday amalga oshirilishini nazorat qilish</p> <p>4. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bo'yicha jihozlar, vositalar va infratuzilma holatini tekshirish</p> <p>5. Tayyorgarlik mashg'ulotlari va o'quv-treninglarning o'tkazilishini nazorat qilish</p> <p>6. Aniqlangan kamchilik va qonun buzilishlarni belgilash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar kiritish</p> <p>7. Obyekt rahbariyati va xodimlariga favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va bartaraf etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirishda yordam berish</p> <p>8. Tekshiruv natijalari asosida rasmiy hisobotlar, bayonnoma va dalolatnomalarni tuzish</p> <p>9. Tavsiyalar ijrosini nazorat qilish va zarur hollarda takroriy tekshiruvlar o'tkazish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Amaldagi qonunlar, qoidalar, standartlar va normativ-hujjatlarni tushunish va qo'llash</p> <p>Obyektlarda favqulodda vaziyatlarni oldini olish, tayyorgarlik va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish</p> <p>Xavfli vaziyatlarni aniqlash va ularning oqibatlarini baholash, kamchiliklarni belgilash va ularni bartaraf etish</p> <p>Tekshiruvlar natijasida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xulosalarni va tavsiyalarni rasmiy hujjatlarga aks ettirish</p>

		Obyektlarda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini baholash
		Obyekt xodimlari va rahbariyati bilan samarali hamkorlik qilish
		Bilimlar:
		Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etishga oid davlat standartlari, qoidalar, nizomlar va tartiblari
		Korxonalar va tashkilotlarda xavfsizlik choralari ta'minlash bo'yicha me'yoriy hujjatlar
		Tayyorgarlik mashg'ulotlari va o'quv-treninglarning o'tkazilish tartibi
		Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va ularni bartaraf etish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar tartibi
		Aniqlangan kamchilik va qonun buzilishlarni belgilash va ularni bartaraf etish usullari
	A2.02.6- Korxonalar va tashkilotlarda xavflarni aniqlash va ularni kamaytirish choralari qanday joriy etilganligini tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Xavflarni aniqlash va kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan ichki qoidalar, rejalar va dasturlarni ko'rib chiqish
		2. Tashkiliy va texnik jihatdan xavflar aniqlanishi mumkin bo'lgan joylarni tekshirish
		3. Xodimlarning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini va xavflarni kamaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarini nazorat qilish
		4. Mavjud xavf va xatarlarni aniqlash, ularning ta'sirini baholash hamda xavflarni kamaytirishga oid tadbirlarning samaradorligini o'rganish
		5. Tekshirish natijalariga asoslanib, xavflarni kamaytirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		Obyektning texnik, tashkiliy va mehnat muhiti xavflarini kompleks baholash
		Korxonada xavflarni kamaytirish bo'yicha ichki hujjatlar bilan tanishish va ularning amal qilish darajasini baholash
		Texnik vositalar (yong'in o'chirish vositalari, signalizatsiya tizimlari, evakuatsiya qurilmalari va boshqalar)ning xavflarni kamaytirishga mosligini va samaradorligini tekshirish
		Tekshirish natijalariga asosan xavflarni kamaytirish bo'yicha aniq va asoslangan tavsiyalar kiritish
Xavflarni kamaytirish bo'yicha takliflar kiritish va korxonaning xavfsizlik darajasini oshirish bo'yicha ishlar olib borish		

		<p>Xodimlarni xavflarni kamaytirish bo'yicha o'qitish, tushuntirish va mashqlarni tashkil etish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Xavfli vaziyatlarni turlari (yong'in, kimyoviy, mexanik, elektrik, ekologik va boshqalar)</p> <p>Xavflarni aniqlash, baholash va kamaytirish usullari va texnologiyalari</p> <p>Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha normativ hujjatlar</p> <p>Tashkiliy va texnik chora-tadbirlar, yong'in signalizatsiya tizimlari, yong'in o'chirish vositalari, evakuatsiya yo'llari va boshqa xavfsizlik vositalari</p> <p>Obyektlarda tekshirishni o'tkazish, xavflarni aniqlash va kamaytirish darajasini baholash qoidalari</p> <p>Yongin xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar vaqtida xavflarni kamaytirish uchun qo'llaniladigan texnik vositalar va ularning ishlash prinsiplari</p> <p>Yangilangan texnologiyalar, zamonaviy qurilmalar va xavflarni kamaytirishda qo'llaniladigan ilg'or usullari</p>
	<p>A2.03.6- Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va oldini olish ishlarida mas'ullarning vazifalari belgilab berilganligi hamda ularning bajarilishini tekshirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Mas'ul shaxslar va bo'limlar vazifalari, majburiyatlari to'g'risidagi ichki qoidalar va buyruqlarni o'rganish</p> <p>2. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va oldini olish bo'yicha ish rejalari va dasturlarini tekshirish</p> <p>3. Javobgarlar tomonidan belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi holatini tekshirish</p> <p>4. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini joyida kuzatish</p> <p>5. Mas'ul shaxslar bilan samarali muloqot qilish va ularni vazifalarini to'la bajarishga yo'naltirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va oldini olish bo'yicha rejalar va dasturlarni baholash</p> <p>Obyektlarda mas'ul shaxslarning vazifalarini bajarilishini nazorat qilish</p> <p>Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va oldini olish ishlarini tekshirish</p> <p>Tekshirish natijalari bo'yicha aniq, to'liq va tizimli hisobotlar tayyorlash</p>

		<p>Bilimlar:</p> <p>Favqulodda vaziyatlar sohasidagi qonunlar, farmonlar, buyruqlar va normativ-huquqiy hujjatlar</p> <p>Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish, oldini olish va bartaraf etish bo'yicha standartlar, qoidalar va yo'riqnomalar</p> <p>Korxonalar va tashkilotlarda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va oldini olish bo'yicha mas'ul shaxslarning vazifalari</p> <p>Xavflarni aniqlash, tahlil qilish va ularni kamaytirish choralarini tashkil etish nazariyasi va amaliyoti</p> <p>Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va oldini olish ishlarini tekshirish metodologiyalari</p>
	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tekshirishlarni amalga oshirish, qonun buzilishlariga yo'l qo'ymaslik 2. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va oldini olish bo'yicha mas'ul shaxslarning vazifalarini to'g'ri va aniq belgilash jarayoniga yordam berish 3. Xavflarni kamaytirish va tayyorgarlikni yaxshilash bo'yicha tegishli takliflarni kiritish 4. Tekshirish natijalari bo'yicha aniq va xolis hisobotlar tayyorlash 5. Aniqlangan kamchiliklar va buzilishlarni bartaraf etish uchun chora – tadbirlar ko'rishga tavsiya berish 6. Tekshiruv jarayonida tashqi ta'sirlar va bosimlarga qarshi mustaqil qaror qabul qilish 7. Mas'ul shaxslar va tashkilotlarning ma'lumotlariga xolis va adolatli yondashish 8. Tekshirish rejalarini o'z mustaqil baho va tahlillar asosida tuzish 9. Tekshirishni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish 10. Faoliyatda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash <p>Hamkorlikdagi tashkilotlar va jamoatchilikka tekshirish natijalarini aniq va oshkora yetkazish</p>
		<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Hodisa joyiga favqulodda tezkor yetib borish va dastlabki kuzatuvlar o'tkazish, vaziyatning hajmi, tarqalish maydoni va ta'sirlanuvchi obyektlarni aniqlash 2. Hodisaning sabablari va oqibatlarini tezda tahlil qilish, zaharlanish, yong'in, suv bosishi, radiatsiya yoki boshqa xavflar darajasini baholash

<p>A3.6- Favqulodda vaziyatlar yuz berganida nazorat va bartaraf etish ishlarini muvofiqlashtirish</p>	<p>A3.01.6- Favqulodda vaziyat yuz bergan vaqtda vaziyatning og'irligi, tarqalish xavfi va ehtimoliy oqibatlarini tezda aniqlash</p>	<p>3. Hodisaning oqibatlarini baholash, vaziyatning yanada yomonlashish ehtimoli, atrofga tarqalish yo'nalishlari va ta'sir doirasini aniqlash</p>
		<p>4. Ma'lumotlarni yig'ish va tezkor hisobot tayyorlash, favqulodda vaziyat haqida yuqoriga tez va aniq ma'lumot berish</p>
		<p>5. Xavfsizlik choralari amalga oshirish, evakuatsiya, yordamni tashkil qilish, jabrlanganlarni himoya qilish va zararni kamaytirish</p>
		<p>6. Mavjud resurslar va imkoniyatlardan samarali foydalanish, texnik vositalar va kurashish kuchlarini muvofiqlashtirish</p>
		<p>Ko'nikmalar:</p>
		<p>Hodisani tez va to'liq vizual tahlil qilish-vaziyatni tezda baholash, asosiy xavf va xatarlarni aniqlash</p>
		<p>Tezkor ma'lumot yig'ish va tahlil qilish ko'nikmalari-voqealarni aniq va tezkor bayon qilish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash</p>
		<p>Nostandart vaziyatlarda tez qaror qabul qilish va muammolarni hal etish-favqulodda holatlarda tez va samarali harakat qilish</p>
		<p>Tezkor kommunikatsiya va hamkorlik ko'nikmalari-favqulodda vaziyatlar bilan kurashish guruhlar va boshqaruv organlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlash</p>
		<p>Favqulodda vaziyatlarning tarqalish mexanizmlarini va oqibatlarini baholash-ehtimoliy tarqalish yo'nalishlari va ta'sir ko'rsatish hududlarini taxmin qilish</p>
		<p>Barcha turdagi xavf-xatarlarga qarshi profilaktika va bartaraf etish choralari amalga oshirish</p>
		<p>Bilimlar:</p>
		<p>Favqulodda vaziyatlar turlari va ularning xususiyatlari: Tabiiy (zilzila, suv toshqini, quruqchilik, shamol to'foni); texnogen (portlashlar, yong'inlar, ishlab chiqarish avariylari, radiatsiyaviy chiqindilar); biologik va ekologik (epidemiylar, zaharli moddalar chiqishi) kabi vaziyatlarning tarqalish mexanizmlari va ta'sir omillari</p>
		<p>Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda asosiy xavf manbalari va yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar ko'lamini aniqlash uslublari</p>
		<p>Xavfni baholashda matematik, vizual va operativ tahlil usullari</p>
<p>Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda qo'llaniladigan mobilizatsiya rejaları, javobgar shaxslar va xizmatlar</p>		

		Evakuatsiya, tez yordam va qutqaruv guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirish asoslari
		Favqulodda vaziyat oqibatlarini oldindan taxmin qilish va zarar ko'rsatkichlarini hisoblash asoslari
	A3.02.6- Aholiga favqulodda vaziyatda qanday harakat qilish lozimligi bo'yicha ko'rsatmalar berish	Mehnat harakatlari:
		1. Hodisaning turi, masshtabi va tahdid darajasini baholash
		2. Evakuatsiya yo'nalishlari, to'planish joylari va harakat yo'l-yo'riqlarini tushuntirish
		3. Tez tibbiy yordam, elektr-gaz xizmati va boshqalar bilan hamkorlikda harakat qilish
		4. Aholini xavfli hududlardan uzoqlashtirish, ifloslangan havo, suv yoki yerga oid ogohlantirishlar berish
		5. Har bir hodisa uchun maxsus ko'rsatmalar tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Favqulodda vaziyat turini (Yong'in, suv toshqini, zilzila, kimyoviy yoki radiatsiya tahdidi va h.k.) tez aniqlay olish
		Tezkor psixologik reaksiyani tushunish va aholini ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash
		Tibbiy yordam, ichki ishlar idoralari va boshqa tegishli tashkilotlar bilan tez va samarali hamkorlik qilish o'rnatish
		Barcha ishtirokchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish
		Bilimlar:
		Zilzila, suv toshqini, yong'in, texnik avariya, kimyoviy, biologik va radiatsiya xavflari
		Har bir vaziyat turining paydo bo'lish sabablari va oqibatlari
		Aholi xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan standart chora-tadbirlar
		Har bir favqulodda vaziyat turi uchun maxsus xavfsizlik talablari
		Evakuatsiyani tashkil etish va boshqarish prinsiplari
		Evakuatsiya yo'nalishlari, to'planish punktlari va aholini xavfsiz joyga ko'chirish qoidalari
		Aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni tez va samarali tashkil etish uslublari
		Favqulodda vaziyatlarni boshqarishga oid qonunlar, qoidalar va farmoyishlari
	Inspektorning huquq va majburiyatlari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Insonlar hayotini saqlash maqsadida favqulodda vaziyatni aniq baholab, favqulodda

		<p>chora-tadbirlarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirish</p> <p>2. Har bir ko'rsatmaning to'g'ri va aniq bo'lishi, noto'g'ri ma'lumotlar yoki xato yo'l-yo'riqlar insonlar hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushunish</p> <p>3. Qutqaruv xizmatlari, tibbiy yordam va boshqa idoralar bilan samarali hamkorlikni ta'minlash</p> <p>4. Favqulodda vaziyatlarni nazorat qilish va bartaraf etishdagi keskin vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lish</p> <p>5. Qonun va ichki tartib-qoidalar doirasida o'z vakolatlari asosida harakat qilish va zarur choralarni o'z tashabbusi bilan amalga oshirish</p> <p>6. Aholiga zarur va aniq ma'lumotlarni o'z vaqtida va o'z salohiyati doirasida berish, shubhali axborotlar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik</p>
<p>Texnik va/yoki texnologik talab</p>		<p>Hisobotlarni tez va to'g'ri shaklda tayyorlash.</p> <p>Yong'in o'chirish qurilmalari, birinchi yordam jihozlari, maxsus qutqaruv vositalari texnik xususiyatlarini bilish</p> <p>Kimyoviy, radiatsiya, biologik va boshqa texnogen xavflarni aniqlash va ularni kamaytirish usullarini bilish</p> <p>Texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish</p> <p>O'z xavfsizligini va atrofdagilar xavfsizligini ta'minlash uchun texnik qoidalarga qat'iy amal qilish</p> <p>Yong'in o'chirish uskunalari</p> <p>Aloqa vositalari</p> <p>Monitoring va aniqlash uskunalari</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari</p> <p>Kompyuter va dasturiy ta'minot</p> <p>Texnikalar favqulodda vaziyatlarda uzluksiz ishlashi</p> <p>Gaz va tutun aniqlagichlari yuqori aniqlikda ma'lumot berish</p> <p>Texnikalar yengil va harakatda foydalanishga mos bo'lishi</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari to'liq himoya qilishga ega bo'lishi</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda aloqa doimiy bo'lishi</p>

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 15-yanvar 2026-yildagi 3-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0003-son xulosa, 26.01.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 16.01.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	15.01.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi

(tashkilot nomi)

Bosh boshqarma boshlig'i

Muxitdinov M. Y.

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi boshlig'i	Inagamov Qamariddin Qobilovich
2	Xizmat va jangovar tayyorgarligini tashkil etish boshqarmasi bosh inspektori	Eshmatov Boburbek Ma'murjonovich
3	Maxsus qutqaruv kuchlar boshqarmasi katta ofitser	Abdullayev Nodirbek Abdikadirovich
4	Ta'lim jarayonini tashkil etish boshqarmasi bosh inspektori	Jumanov Ulug'bek Nizomovich
5	Radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza xizmati boshlig'i	Axmedov Sherzod Yuldashevich
6	Tashkiliy shtat bo'limi bosh inspektori	Shokirov Xudoyor Baxtiyor o'g'li
7	Kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi bosh mutaxassisi (kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha) Tarmoq kengash kotibi	Bekmuradov Shodiyor Kenjayevich



FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH
VA BARTARAF ETISH SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

FAVQULODDA VAZIYATLAR DAVLAT NAZORAT
INSPEKTORI